



EXPANSION OF COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND TAJIKISTAN IN THE FIELD OF SCIENCE AND EDUCATION

Nafisa Akhmadova

Senior Lecturer, PhD

Asian University of Technologies

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: diplomatic relations, international cooperation, Central Asia, Kazakhstan, Tajikistan, diplomacy, embassy, politics, science and education, scientific and technical, healthcare, tourism, culture.

Received: 13.06.25

Accepted: 15.06.25

Published: 17.06.25

Abstract: The relations, mutual exchanges, historical and cultural dialogues, cooperation and agreements in the field of education between Uzbekistan and Tajikistan were covered and analyzed based on sources. The cooperation between Uzbekistan and Tajikistan in the social, cultural, scientific and educational spheres was touched upon.

O'ZBEKISTON VA TOJIKISTON O'RTASIDAGI FAN-TA'LIM SOHASIDAGI HAMKORLIKLARNING KENGAYISHI

Nafisa Axmadova

Osiyo texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zi: diplomatik munosabatlar, xalqaro hamkorlik, Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Tojikiston, diplomatiya, elchixona, siyosat, fan va ta'lim, ilmiy-texnikaviy, sog'liqni saqlash, sayyohlik, turizm, madaniyat.

Annotatsiya: O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi aloqalar, o'zaro almashinuv, tarixiy-madaniy muloqotlar, ta'lim sohasidagi hamkorliklar va bitimlar manbalar asosida yoritildi va taxlil etildi. O'zbekistonning Tojikiston bilan ijtimoiy, madaniy, fan, ta'lim sohalaridagi o'zaro hamkorligiga to'xtalib o'tildi.

РАСШИРЕНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТАДЖИКИСТАНОМ В СФЕРЕ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ

Нафиса Ахмадова

Старший преподаватель, PhD

Азиатского технологического университета

Кариши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дипломатические отношения, международное сотрудничество, Центральная Азия, Казахстан, Таджикистан, дипломатия, посольство, политика, наука и образование, научно-технический, здравоохранение, туризм, культура.

Аннотация: На основе источников были освещены и проанализированы отношения, взаимные обмены, исторические и культурные диалоги, сотрудничество и соглашения в сфере образования между Узбекистаном и Таджикистаном. На встрече обсуждались вопросы сотрудничества Узбекистана с Таджикистаном в социальной, культурной, научной и образовательной сферах.

Kirish.

Markaziy Osiyo davlatlari qardoshlik munosabatlarida O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari muhim ahamiyatga ega. O'zbek va tojik xalqlarining o'tmishi, ularning o'zaro bog'liqligi va hozirgi munosabatlari turli davrlarda turlicha munozaralarga sabab bo'lmoqda.

1992 yil 8 oktabrda Tojikiston Respublikasi Oliy Kengashi Raisi Imomali Rahmonov rahbarligidagi delegatsiyasi rasmiy davlat tashrif bilan Toshkentda bo'ldi va ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlandi.

1991-1996 yillarda O'zbekiston va Tojikiston munosabatlarida ham o'zaro qardoshlik, do'stlik, birodarlik, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda hamkorlik tamoyiliga amal qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Moliya vazirligi va Tojikiston Respublikasi Milliy Banki Moliya vazirligi bundan buyon tomonlar deb yuritilishi, "O'zbekiston Respublikasi hukumati va Tojikiston Respublikasi hukumati o'rtasidagi bitim asosida Tojikiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi oldidagi qarz majburiyatlarini 2002 yil 12 fevraldagi davlat kreditiga xizmat ko'rsatish maqsadida qayta tashkil qilish shartlari to'g'risida kelishib olindi. O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Tojikiston Respublikasi hukumati o'rtasida 2002 yil 12 fevraldagi "Tojikiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi oldidagi qarz majburiyatlarini tarkibiy o'zgartirish shartlari to'g'risidagi" bitimga muvofiq Tojikiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasiga davlat krediti 105,621 mln AQSh dollarini tashkil etadi, 1997-2001 yillardagi kelishuv aktlarini hisobga olgan holda tojik tomonining davlat krediti bo'yicha davlat qarzini to'lash va undan foydalanganlik uchun foizlar AQSh dollarida amalga oshiriladi.[1]

O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari yangi davrga qadam bosmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmonning taklifiga binoan 2018 yilning 9-10 mart kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

Bugungi kunda tojik millatiga mansub qariyb 1,5 million O'zbekiston fuqarosi mamlakatimizda istiqomat qilyapti va davlatimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmoqda. Ular orasida davlat arboblari, korxona rahbarlari va san'atkorlar ham mavjud va ularning ko'pchiligi davlatimizning yuksak mukofot va unvonlariga ega bo'lganlar.[2]

2017 yil yakunlari bo'yicha mahsulot ayirboshlash hajmi 240 mln dollarni tashkil etdi. Bu so'nggi 20 yil davomidagi eng yuqori ko'rsatkich.

Bunda mahsulotlar yetkazib berish hajmi xizmatlarni hisobga olmaganda, so'nggi ikki yil ichida 10 barobardan ziyodroqqa oshdi.

Ikki davlat poytaxtlari o'rtasida aviaqatnovlar qayta tiklandi. G'alaba-Amuzang temir yo'li qayta tiklandi, Samarqand-Panjikent uchastkasida A-377 xalqaro avtomobil yo'li ochildi.

Yaqin kunlarda o'zbek-tojik davlat chegarasidagi barcha chegara viloyatlarida o'tkazish punktlari faoliyati qayta yo'lga qo'yiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon 2018 yilning 17 avgust kuni davlat tashrifi bilan davlatimizga keldi.[3]

O'zbekiston va Tojikiston xalqlarini ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, yagona din, o'xshash madaniyat, urf-odat va an'analar bir-biriga mustahkam bog'lab turadi.

Prezidentlarning siyosiy irodasi va uzoqni ko'zlab yuritayotgan oqilona siyosati tufayli so'nggi yillarda mamlakatlarimizning ko'p qirrali hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi, xalqlarimiz do'stligi mustahkamlandi.

Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 9-10 mart kunlari Tojikistonga davlat tashrifi tarixiy voqea bo'ldi. Davlat boshliqlarining o'zaro muloqotlari O'zbekiston – Tojikiston hamkorligini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Davlatimizning ochiq, konstruktiv va pragmatik tashqi siyosati natijasida O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida turli darajadagi delegatsiyalar almashuvlari faollashdi. Prezidentimizning Tojikistonga davlat tashrifi doirasida o'zaro hamkorlikni siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika va boshqa yetakchi sohalarda rivojlantirishga doir 27 hujjat imzolandi.[4]

Mamlakatlarimiz BMT, ShHT, MDH kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalarda tomonlarning qarashlari o'xshash yoki yaqindir. Jumladan, qo'shni Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash borasida tomonlar xalqaro hamjamiyat bilan samarali hamkorlik qilmoqda.

Mamlakatlarimiz o'rtasida o'zaro tovar ayirboshlash o'sib bormoqda. 2018 yilning birinchi yarmida o'zaro savdo hajmi 35,1 foiz ortdi. 2018 yilda qiymati 300 million dollardan ortiq shartnoma va kelishuvlar imzolaniib, ularni hayotga tatbiq etish choralari ko'rilmogda.

Davlatimizda Tojikiston kapitali asosida 39 korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Tojikiston hududida O'zbekistonlik sarmoyadorlar tomonidan tuzilgan 8 korxona mavjud. Ishbilarmon doiralar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish maqsadida Dushanbe va Toshkentda qo'shma biznes-forumlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylandi. Tashrif asosida poytaxtimizda o'tkazilgan qo'shma biznes-forumda qiymati 103 million dollarlik eksport shartnomalari tuzildi.

Energetika sohasidagi samarali hamkorlik mustahkamlanib bormoqda. 2018 yil aprel oyidan Tojikistonga tabiiy gaz yetkazib berish tiklandi va Tojikistondan elektr energiyasi sotib olish hajmi ko'paymoqda. Davlatlarimiz transport va xalqaro tranzit koridorlarini rivojlantirish sohasida samarali hamkorlik qilmoqda.

Markaziy Osiyo suv resurslaridan oqilona foydalanish hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan. Tomonlar bu borada ochiq muloqotni davom ettirish tarafdori. Muzokaralar natijasida Zarafshon daryosining Tojikiston hududidagi qismida O'zbekiston va Tojikiston kompaniyalari ishtirokida 320 megavattlik 2 ta GES qurishga kelishib olindi.

Bugun O'zbekistonda istiqomat qilayotgan tojik millatiga mansub yurtdoshlarimiz nufuzi 1,5 millionga yaqin. Ular orasida davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanganlar ko'p. Respublika tojik milliy madaniyat markazi va uning 10ta hududiy filiali faoliyat yuritmoqda.[5]

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev va Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon Qo'shma bayonotni, O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.

Standartlashtirish va sertifikatlashtirish, antimonopol siyosat va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, geologiya va ilmiy-texnikaviy, qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat xavfsizligi, ta'lim, yoshlar, madaniyat va san'at masalalariga doir qator hujjatlarga qo'l qo'yildi.

Mamlakatlarimiz hududlari o'rtasidagi hamkorlikka oid, jumladan, Surxondaryo viloyati bilan Xatlon viloyati, Samarqand viloyati bilan So'g'd viloyati o'rtasida iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamda madaniy-gumanitar hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

2024-yilning 15–16-aprel kunlari O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan O'zbekiston-Tojikiston oliy ta'lim muassasalari rektorlarining ikkinchi forumi tashkil etildi.

2030-yil: O'zbekiston va Tojikistonda oliy ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida katta anjuman o'tkazildi. Anjumanda Tojikiston Respublikasi Ta'lim va fan vaziri Rahim Saidzoda boshchiligida tashrif buyurgan 30 ga yaqin nufuzli oliy ta'lim muassasalari rektorlaridan iborat delegatsiya va O'zbekiston tomonidan 50 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, vazirlik va idoralar mas'ullari qatnashdi.

Xalqaro anjuman oldidan O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov Tojikiston Ta'lim va fan vaziri Rahim Saidzoda bilan muzokara o'tkazdi. Muzokaralar davomida ikki mamlakat oliy ta'lim tizimi yetakchilari oxirgi yillarda oliy ta'lim, ilm-fan sohalarida hamkorlik aloqalari kengayayotganini e'tirof etib, bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirishga kelishib oldi.

– Keyingi yillarda an'anaviy o'tkazib kelinayotgan bu kabi forumlar ko'plab davlatlar, shu jumladan Tojikiston Respublikasi bilan ham ta'lim sohasidagi aloqalarni har tomonlama kengaytirish va yangi bosqichga olib chiqishda muhim platforma vazifasini o'tamoqda. Bugungi anjumandan ko'zlangan asosiy maqsad inson kapitalini, yuqori intellektual salohiyatni rivojlantirish, nazariy-amaliy shakllantirish, kasbiy mahoratini oshirish va ikki davlat hududidagi ulkan tabiiy resurslarni ilmiy-institutsional boshqarishga qodir kadrlarni tayyorlashdan iborat. Shunday ekan, mazkur forum kun tartibiga qo'yilgan masalalar chuqur hamkorlikni amalga oshirish va uni yangi cho'qqiga ko'tarish bo'yicha muhim kelishuvlarga erishish hamda ilmiy va ta'lim sohasida o'zaro fikr almashish imkonini beradi, – dedi Q. Sharipov.

– Hamkorlik doirasida biz oliy ta'lim muassasalariaro aloqalarni yangi sifat darajasiga olib chiqish hamda ta'lim sifatini oshirish borasidagi amaliy harakatlar bizning asosiy maqsadlarimizdan biriga aylanadi. Shu paytgacha O'zbekistonning 30 ta oliy ta'lim muassasasi Tojikistonning 15 dan ortiq ilmiy va ta'lim tashkilotlari bilan qator yo'nalishlar bo'yicha aloqalarni yo'lga qo'yanini va bundan keyin ham ishonchim komilki, ushbu hamkorlik har tomonlama kengayib borishini mamnuniyat bilan ta'kidlamoqchiman, – dedi R.Saidzoda.

Hozirda yurtimizning 5 ta oliy ta'lim muassasasida ta'lim tojik tilida yuritilayotgan maktablar uchun kadrlar tayyorlanadi. 2020/2021 o'quv yilida tojik tilidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul parametrlari ikki baravar oshirildi.

Samarqand davlat universitet rektori, professor Rustam Xolmurodov “Sifatli ta'lim tizimi – hudud barqaror rivojlanishining muhim omili”, Tojikiston milliy universitet rektori Emomali Nasriddinzoda “Oliy ta'lim transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri, samarali boshqaruv va bitiruvchiarni ish bilan ta'minlash muammolari”, Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektori, professor Botir Usmonov “O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlari. 2030 strategiyasi”, Abu Ali ibn Sino nomidagi Tojikiston davlat tibbiyot universiteti rektori, professor Mahmudshoh Gulzoda “Barqaror kelajak uchun ta'lim: xalqaro hamkorlik strategiyalari va amaliy yondashuvlar” mavzularida ma'ruza qilishd.

Forum yakunida oliy ta'lim, ilm-fan sohalarida hamkorlikni mustahkamlash, o'zaro tajriba almashinuvni kengaytirish va manfaatli aloqalarning boshqa dolzarb yo'nalishlari bo'yicha 50 dan oshiq anglashuv memorandumlari, bitim va «Yo'l xarita»lari imzolandi.

Natijalar va muhokama O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida fan-ta'lim sohasidagi hamkorlik so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Ikki davlat rahbarlari tomonidan olib borilayotgan do'stona siyosat va o'zaro ishonch asosidagi munosabatlar fan va ta'lim sohalarda yanada ko'zga tashlanmoqda. Bugungi kunga kelib universitetlararo hamkorlik, qo'shma ilmiy loyihalar, akademik mobillik dasturlari, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvi bu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Tojikiston oliy ta'lim muassasalari bilan O'zbekiston universitetlari o'rtasida tuzilgan memorandumlar asosida ilmiy anjumanlar, konferensiyalar va qo'shma tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Xususan, tabiiy fanlar, texnika, tarix va tilshunoslik yo'nalishlarida hamkorlik yanada faollashmoqda. Shuningdek, Tojikistonda o'zbek tilida ta'lim oluvchi talabalar sonining ortishi va O'zbekistonda tojik tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish ham bu jarayonni yanada mustahkamlab bormoqda.

Bundan tashqari, ikki mamlakatda yosh olimlar va iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash, qo'shma grant dasturlarini joriy etish orqali ilmiy salohiyatni rivojlantirishga e'tibor kuchaymoqda. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi barqaror va uzoq muddatli fan-ta'lim integratsiyasiga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi fan-ta'lim sohasidagi hamkorliklar tobora kengayib, ikki tomonlama aloqalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu hamkorlik nafaqat ilmiy va akademik taraqqiyotga, balki mintaqaviy barqarorlik va do'stlikni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Kelajakda bu yo'nalishdagi hamkorlik yanada samarali bo'lishi uchun qo'shma dasturlar sonini ko'paytirish, ilmiy kadrlar tayyorlashni muvofiqlashtirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўз МА. Ф-М-37, 1-рўйхат, 7491-йиғма жилд. Б.148.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Асарлар, 2-том. -Т.:Ўзбекистон, 2018. -Б.341.
3. Ўзбекистон ва Тожикистон- стратегик шерик мамлакатлар. // “Халқ сўзи” газетаси, 2018 йил, 18 август.
4. Ўзбекистон ва Тожикистон- стратегик шерик мамлакатлар. // “Халқ сўзи” газетаси, 2018 йил 18 август.
5. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Асарлар, 3-том. -Т.:Ўзбекистон, 2019. -Б.178.